

**Ф.Гаибназарова**

**Odam anatomiyasи fanidan ma’ruza  
matnlari va laboratoriya mashg`ulotlari  
to`plami.**

(uslubiy qo`llanma)

## **Kirish**

O`zbekiston Respublikasi Ta`lim to`g`risidagi qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta`lim tizimini tubdan isloh qilish shu bilan birga ta`lim muassasalarida etuk kadrlarni tayyorlash maqsadida ushbu qo`llanma yaratildi.

Ushbu «Odam anatomiiyasi fanidan laboratoriya mashg`ulotlari to`plami» nomli uslubiy qo`llanmada laboratoriya darslariga mo`ljallangan qirqqa yaqin mavzular yoritilgan bo`lib, unda: darsning maqsadi, kerakli jixozlar, ishning borishi hamda ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar alohida ko`rsatilib izohlangan.

Uslubiy qo`llanmada ba`zi bir murakkab laboratoriya mashg`ulotlari bir nechta tajribalarga bo`lib keltirilgan.

Ushbu uslubiy qo`llanmada laboratoriya sharoitida ishlash qoidalari, ularning jihozlari hamda kimyoviy reaktivlar, biologik preparatlar Bilan ishlaganda amal qilinadigan xavfsizlik qoidalari keltirilgan. Shubilan birga laboratoriya mashg`ulotlarini o`tkazishdan oldin mavzuga doir ma`ruza matnlari Bilan boyitilgan.Uslubiy qo`llanmada har xil mikroskoplarda ishlash qoidalari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Ushbu uslubiy qo`llanma O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida 2003 yilda chop etilgan «Odam anatomiyasi va fiziologiyasi» fanlari dasturi asosida tayyorlangan.Ushbu dasturdagi ko`rsatilgan laboratoriya mashg`ulotlari mavzulari 5140400 biologiya va inson hayotiy faoliyati muhofazasi bakalavriat yo`nalishidagi talabalar uchun mo`ljallangan. Bu esa uz navbatida talabalarning laboratoriya mashg`ulotlarini dasturga muvofiq mukammal o`zlashtirishlari va o`z navbatida imtihon va bilim nazoratlaridan muvaffaqiyatli o`tishi uchun anchagina qulaylik yaratadi.

### **Odam anatomiyasi.**

**Anatomiya**-odam tanasi organlari va organlar sistemalarining tuzilishini ularning bajarayotgan funkciyalari bilan bog`lab o`rganadi. Organlar tuzilishi ularning funkciyasini o`rganmasdan tushunib olish qiyin. Shu sababli ham bu fan fiziologiya faniga hamda gigiena qoydalariga o`zaro chambarchas bog`langan. Organlar va organlar sistemasining tuzilishi va funkciyalarini bilib olish, mehnat qilish va dam olishning gigienik shart-sharoitlarini asoslab berish, shuningdek sog`liqni saqlash, inson mehnat qobiliyatini oshishi hamda uning umrini uzaytirish uchun kasalliklarni oldini olish imqonini beradi.

### **Odam organizmining umumiyy ta`rifi.**

**Hujayra**-Odam organizmi ham barcha tirik organizmlar singari hujayralardan tashqil topgan. Hujayralar oralig`i moddasi hujayralarni pishiq va mustahkamligini saqlaydi. Ularni oziqlanishi va nafas olishini ta`minlaydi. Organizmdagi hujayralarning tuzilishi, katta-kichikligi, shakli va funkciyalari har xil bo`ladi, lekin ularning tuzilishi va xususiyatlarining bir qancha tomonlari o`xshash bo`ladi.

Hujayralarning kimyoviy tarkibiga turli meniral va organiq moddalar: suv, mineral tuzlar, oqsillar, yog`lar, uglevodlar kiradi. Bu moddalar hujayraning hayotiy faoliyatiga juda muhim ahamiyatga ega.

**To`qimalar**-kelib chiqishi, tuzilishi va bajaradigan funkciyalari bilan bir-biriga o`xhash bo`lgan hujayralar va hujayra oralig`i moddasi tuqimlarni hosil qiladi. Organizmda epiteliy, muskul va nerv to`qima va biriktiruvchi to`qimalari mavjud. epiteliy tana qoplag`ichi va bezlarni hosil qiladi. Organlarning ichki yuzasini qoplاب turadi. Terining ustki qavati, ichak, nafas yo`llarining ichki devori epiteliy to`qima bilan qoplangan. Bu to`qima organizmni zararli moddalar va mikrooragnizmlar ta'siridan saqlaydi hamda organzm bilan tashqi muhit o`rtasida moddalar almashinuvini ta'minlaydi.

Biriktiruvchi to`qimada hujayra oralig`i moddasi ko`p bo`ladi, hujayralar tig`iz joylashmaydi. Bu to`qimalarga misol qilib tog`ay, suyak, qon va limfani ko`rsatish mumkin. Tog`ay to`qimasi suyaklarning bo`g`im qismida, umurtqalar oralig`ida va qulqoq suprasisida joylashgan. Suyak to`qimasi suyakni hosil qiladi. Uning oralig moddasi tolalar va mineral moddalar saqlovchi amorf moddadan iborat. qon va limfa suyuq biriktiruvchi to`qimani hosil qiladi.

Ular tayanch (tog`ay va suyak), oziqlantirish va himoya vazifasini bajaradi.

Muskul to`qimasi silliq va ko`ndalang targ`il muskul lardan tashqil topgan. Silliq muskul lar ichki organlar tarkibiga kiradi, ichak va qon tomirlari devorlarini qoplاب turadi. U bitta yadroli, dugsimon 0,1 mm gacha uzunlikdagi hujayralardan tashqil topgan. Bu hujayralar sekin, ritmik ravishda qisqarish xususiyatiga ega. Ko`ndalang targ`il muskul lar skelet, til, ko`z, halqum, bo`g`iz muskul lari tarkibiga kiradi. Bu to`qima 10-12 sm uzunlikdagi alohida tolachalar joylashgan. Har bir tola ko`p yadroli hujayra bo`lib, uning citoplazmasida miofibrillar deb ataluvchi juda maydatolalar joylashgan. Miofibrillar qaramtir va oqish ko`ndalang chiziqlar ko`rinadi. Miofibrillar birga qo`silib boyamlarni, boyamlar esa muskul larni hosil qiladi. Muskul lar to`qimasi qo`zg`alishi va qisqarish xususiyatiga ega. Ularning bu xususiyatlari tufayli organizmning ichki organlarida harakatlanish yuz beradi.

Nerv to`qimasi nerv hujafrali- neyronlardan hamda neyrogliydan iborat. Neyronlar hujayra tanasi va ikki xil citoplazmatik o`simtalardan tuzilgan. Ulardan biri uzun, shoxlanmaydigan aksondan, ikkinchisi esa shoxlangan o`simtalar dendritlardan iborat. Dendritlar qo`zg`alishni nerv tanasiga tomon, akson esa qo`zg`alishni neyronlardan boshqa hujayralarga va to`qimalarga uzatadi.

Organizmda har xil to`qimalar bir-biri bilan turlicha birikib organlarni hosil qiladi.

Organ odam organizmining bir qismi bo`lib, o`ziga xos muayyan shaklga, tuzilishga ega va ma'lum bir funkciyani bajarishga moslashgan bo`ladi. Organizmda kelib chiqishi va bajaradigan vazifasi bilan o`xhash bo`lgan organlardan organlar sistemasi tarikb topgan. Masalan:oziq moddalarni chaynab xazm qilish vazifasini bajaradigan (og`iz, halqum, ichak, jigar va boshqalar) ovqat hazm qilish sistemasi hosil qiladi. Odam organizmi qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, ayirish, ichki sekreciya bezlari, tayanch-harakat, nerv va jinsiy organlar sistemasidan iborat.

### ***Mikroskop haqida umumiyma'lumot.***

Hujayra ichki tuzilishi, citoplazmadagi xarajatlarni kuzatishda lupaga qaraganda murakkabroq asbob-mikroskopdan foydalaniladi. Mikroskop buyumlarni ming marta va undan ko`p, zamonaviy mikroskoplar esa yuz ming marta kattalashtirib ko`rsatadi. Mikroskop ixtiro qilingach, tirik mavjudodlar, shu jumladan, (o`simliklar) odam organlari hujayralardan tuzilganligini aniq va ravshan ko`rish mumkin bo`ladi. Mikroskop orqali hujayralarni, organlar va organlar sistemalarini tuzilishini ko`rish, o`rganish oson bo`ladi.

Sodda tuzilgan mikroskoplar ko`rish nayiga joylashtirilgan linzalardan iborat. Nayning yuqorigi uchiga kattalashtirib ko`rsatadigan ikkita (qo`sh) linzali okulyar o`rnatilgan. Pastki uchiga bir necha linzali ob`ektiv qo`yilgan va u mikroskopda qo`yilayotgan priparatga yo`naltiriladi. Ko`rish nomi cho`yandan yasalgan og`ir taglikka o`rnatiladi. Nomi burama vint yordamida yuqorigi ko`tarish va pastga tushurish mumkin.

Tagilikka o`rnatilgan o`rtasi teshik buyum stolchasi ko`rish nayining ostida to`g`ri keladigan qilib joylashtirilgan. Bu teshik orqali buyum stolchasi ostidagi ko`zgudan ko`rish nayiga yo`naltirilgan yorug`lik nuri o`tadi. Yorug`lik nuri, o`z navbatida, buyum stolchasi ustidagi buyumni yoritib, so`ngra kattalashtiruvchi linzalardan o`tadi. Ana shu yorug`lik nuri ta'sirida preparatning kattalashtirilgan tasviri ko`rinadi.

Mikroskopni necha marta kattalashtirib ko`rsatishini bilish uchun ob`ektiv bilan okulyardagi sonlar bir-biriga ko`paytiriladi.

Masalan: okulyar 15x bo`lib, ob`ektiv 40x bo`lsa (15x40), buyum 600 marta kattalashtirilgan holda ko`rinadi.

Hozirgi zamon yorug`lik mikroskoplari ob`ektni 3000 martagacha kattalashtirish imkonini beradi. Yorug`lik mikroskoplari yordamida faqat fiksaciyalangan o`lik hujayralarnigina emas, balki tirik hujayralarni o`rganish mumkin. Tirik hujayralarni o`rganishda faza-konsrast, polyarizacion, lyuminescent mikroskoplardan foydalaniladi.

**elektron mikroskoplarning** kashf etilishi hujayra tuzilishi to`g`risidagi bilimlarning kengayishiga sabab bo`ladi. elektron mikroskopda yorug`lik o`rniga elektromagnit maydondan foydalaniladi. elektron mikroskop o`rganilayotgan buyumni yuz ming, hatto million marta kattalashtirishga imkon beradi. elektron mikroskop yordamida ilgari ma'lum bo`limgan hujayralarning tarkibiy qismlari yanada chuqurroq o`rganilibgina qolmay, balki yangi muhim ma'lumotlar ham to`plandi, masalan: ribosomalar, endoplazmatik to`r, mikronaylar kashf etildi, plazmolemmanning nozik tuzilmasi yoki tuzilishi aniqlandi.

## **Labarotoriya ishi №1.**

### ***Mavzu: Mikroskopning tuzilishi va vazifasi bilan tanishish.***

**Maqsad:** Mikroskop qismlari bilan tanishish, tuzilishi va vazifalarini o`rganish hamda mikroskopni ishslash jarayonni to`g`risida to`liq ma'lumot berish.

**Kerakli jihozlar :** yorug`lik, mikroskop, elektron mikroskop, tayoyr mikropreparatlar, okulyar, obe`ktiv, linzalar, planshet, tablicalar, plakatlar.

**Ishning borishi:** Labarotoriyadagi amaliy mashg`ulot jarayonnida mikroskop bilan ishslash qoidalariiga amal qilish zarur:

1. Mikroskop stol chekkasida 3-4 sm nariga (ichkariga) qo`yiladi.

2. Yumshoq toza quruq latta bilan dastlab okulyar, so`ngra obektiv linzalari hamda ko`zgu-nur to`plovchi oynalar artiladi.

3. Mikroskopning kichik obektini (8x li) buyum stolchasining teshigi ro`parasiga keltirib, 0,5-1 sm balandlikda tutiladi.

4. Chap ko`z bilan okulyardan qarab, botiq oyna yorug` tushayotgan tomonga qaratilib, nurni obektiv tomon yo`naltiriladi. Obektiv bir tekis tiniq va to`la yoritilishi kerak. Bu jarayonlar yorug`lik mikroskopida bo`ladi. elektron mikroskopda yorug`lik o`rniga elektromagnit maydondan foydalaniladi.

5. Har qanday preparat oldin kichik obektivda kuzatiladi. Obektiv preparatdan 4-6 mm baland bo`lishi kerak. So`ngra okulyar orqali bir ko`z bilan kuzatib, ob`ektivdagi narsa ko`ringuncha mikrovint yordamida ohista tushirila boradi. Narsaning aniq tasviri ko`ringach, ob`ektivni tushirish yo ko`tarish to`xtatiladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar.

1. Mikroskop qanday qismlardan tashkil topgan?

2. Yorug`lik mikroskop hamda elektron mikroskop buyumlarni necha marta kattalashtirib ko`rsatishi mumkin?

## Labarotoriya ishi №2

**Mavzu:** Odam organizmining shilliq pardasi hujayrasidan vaqtinchalik preparat tayyorlash va uni mikroskopda ko`rish.

**Darsning maqsadi:** Odam organizmi shilliq pardasi hujayralari haqida to`liq ma'lumot berish. Vaqtinchalik preparat tayyorlab, uni mikroskopda ko`rish.

Bu ish odam hujayrasini o`rganilayotganda bajariladi. Mikroskoplari etarli bo`lgan labarotoriya xonalarida hujayra preparatini tayyorlash va uni mikroskopda ko`rish yuzasidan darsdan tashqari labarotoriya ishlari o`tkazish maqsadga muvofiqdir.

**Kerakli jihozlar:** mikroskop buyum va qoplagich oynalar, spirt lampa, tomizgich, spirt, issiq qonli hayvonlarga mo`ljallangan eritma (osh tuzining 0.9 % li eritmasi), paxta, oynasiga rangli siyoh.

**Ishning borishi:** Spirt lampada qizdirilib va spirt bilan artilib, dizenfekciya qilingan skalpelning o`tmas tomoni bilan labning ichki shilliq yuzasi sekin kiriladi. Kirindini toza buyum oynasidagi fiziologik eritma tomchisiga ko`chirilib, u bilan aralashtiriladi va qoplagich oyna bilan yopiladi. Agar preparat to`g`ri tayyorlangan bo`lsa, tiniq epiteliy hujayralari mikroskopda alohida va bir nechtasi g`uj holda ko`rinadi. Labning ichki yuzasidan olingan qirindida hujayralar tolpilmasi, til yoki lunj yoki tanglay yuzasidan olingan qirindi mikroskopda ko`riladi.

Hujayra yadrosini aniq ko`rish uchun buyum oynasidagi qirindiga suyultirilgan binafsha rang siyox tomizilib, 1-2 minut o`tgach. qoplag`ich oyna yopiladi.

Preparat mikroskopda ko`rilganda talaba hujayraning shakli va qismlari (qobiq, citoplazma va yadro)ni aniqlay olishi juda muhimdir. Buning uchun yaxshi tayyorlangan preparatlardan biri mikroskopning katta ob`ektiviga to`g`rulanadi va okulyari orqali talabalarga ko`rsatiladi. Labaratoriya mashg`uloti yakunida odam hujayrasi ham xayvon va o`simlik hujayralari kabi qobiq, citoplazma va yadrodan iborat degan xulosa chiqariladi.

Ishni rasmiylashtirishga oid tavsiyalar.

Mikroskopda ko`rilgan til yoki tanglaydan qirindini, ichki tuzilishlarini rasmini chizing.

### Laboratoriya ishi № 3

**Mavzu:** Baqa terisidan olingan epiteliy to`qimasidan vaqtinchalik preparat taylorlash va uni mikroskopda ko`rish.

**Darsning maqsadi:** Baqa terisidan olingan epiteliy to`qimasini talabalrga tanishtirish. epiteliy to`qimadan taylorlangan vaqtinchalik preparatlarni mikroskopda ko`rish. epiteliy qoplag`ichi va bezlari hosil qiladi, organlarning ichki yuzasini qoplab turadi. U terining ustki qavat, ichak, nafas yo`llari ichki devori epiteliy to`qima bilan qoplangan.

**Kerakli asboblar:** Mikroskop, buyum va qoplagich oynalar, pincet, preparaval' nina, tomizgich, siyohga bo`yagan baqa terisining epiteliy pardasi, stakanda toza suv.

**Izox:** Baqa terisining epiteliy pardasini olish uchun og`zi doka bilan berkitilgan shisha bankadagi suvda uni 1-2 kun saqlanadi (bankadagi suv baqani ko`mar – ko`mmas darajada bo`lsin). Shunda suv baqani oq yupqa prada parchalari hosil bo`ladi. U baqa terisidan ajralgan epiteliy to`qima pardasidir. Uni petri kosachadagi suvga ko`chirib hujayra yadrosoi ko`rinsin uchun binafsha rang siyoh bilan bo`yaladi.

**Ishning borishi:** Och binafsha rangga bo`yagan baqa terisining epiteliy to`qima pardasi idishdagi suv ichida turgan holda bir necha bo`lakchalarga ajratiladi va ulardan biri pincet yoki preporaval' nina uchi bilan buyum oynasidagi suv tomchisiga olinadi. Shundan keyin pardaning buklangan joylari to`g`rlanib, qoplagich oyna bilan yopiladi. Preparat mikroskop ostida qaralganda ko`p qirrali va zikh joylashgan yassi hujayralardan iborat epiteliy to`qimasi ko`rinadi.

Labaratoriya mashg`uloti oxirida epiteliy hujayralarining bir-biriga zikh turishi, ular orasida hujayralararo moddaning deyarli yo`qligi va shunday tuzilishi to`qimaning kimyoviy vazifasiga bog`liq ekanligi to`g`risida xulosa chiqariladi.

Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar.

Baqa terisilan olingan epiteliyar to`qimaning mikroskopda ko`rinishini chizib oling.

### Labarotoriya ishi №4

**Mavzu:** Biriktiruvchi to`qima preparatlarini tayyorlash va uni mikroskopda ko`rish.

**Dasning maqsadi:** Biriktiruvchi to`qima haqida ma'lumot berish, tayyorlangan mikropreparatlarni mikroskop orqali talabalarga ko`rsatish.

Biriktiruvchi to`qima organlar o`rtasida ko`prik bo`lib, ularni bir-biriga bog`laydi. Bu to`qimaga misol qilib, tog`ay suyak, qon va limfani ko`rsatish mumkin. Suyak va tog`ay to`qimasi organlar tayanchini ta'minlaydi. qon va limfa organizmning suyuq ichki muhitini hosil qiladi.

Biriktiruvchi to`qimaning tuzilishi to`g`risida talabalarda aniq tushuncha hosil qilish maqsadida teri ostidagi yumshoq biriktiruvchi to`qimadan yoki tog`ay to`qimasidan vaqtinchalik mikropreparat tayyorlab, uni mikroskop yordamida ko`rsatiladi.

**Kerakli asboblar:** Mikroskop, buyum va qoplag`ich oynalar, pinset, vannacha, Petri kosachasi, o`tkir skal`pel' yoki lezviya, preporoval' nina, tomizgich, yangi

o`ldirilgan baqa yoki biror kichik sut emizuvchi hayvon, suvli idish, suyultirilgan binafsha rang siyoh.

**Ishning borishi:** *1-tajriba.* Ichi yorilgan baqa yoki biror kichik sut emizuvchi hayvon terisi ostidagi yumshoq biriktiruvchi to`qimadan pincet bilan chimdib olingan va buyum oynasidagi suyultirilgan siyoh tomchisiga quyiladi, so`ngra qoplagich oyna bilan yopiladi. Preparat mikroskop ostida qaralganda bir-biridan uzoqda joylashgan alohida, juft va g`uj joylashgan har xil shaklli hujayralar va ular orasida tartibsiz joylashgan tolasimon hujayralar aro modda ko`rinadi.

*2-tajriba.* Baqaning soni yoki elka suyagi ajratib olinib, uning boshchasi bo`g`im haltachasidan tozalanadi. So`ngra suyak boshchasing yuzasi qoplab turgan tog`aydan skal`pel` yoki lezviya yordamida juda yupqa kesmalar kesib olinib, Petri kosachasidagi suyultirilgan siyohga solinadi. Bo`yalgan tog`ay kesmalaridan eng yupqasi buyum oynasidagi suv tomchisiga ko`chiriladi va qoplagich oyna bilan yopilib, mikroskop ostida ko`riladi. Bunda oval yoki doira shaklidagi yakka, juft va g`uj hujayralar va ular orasida qulq holdagi hujayralararo modda ko`rinadi.

Har ikkala preparatlar mikroskopda kuzatilganda biriktiruvchi to`qima hujayralari bir-biridan uzoqda joylashganligi va ularning orasi hujayra tuzilishiga ega bo`lmagan maxsus moddalar bilan to`lganligi xulosa tarzida ta`kidlanadi.

**Ishni rasmiylashtrishga doir tavsiyalar.** Birinchi va ikkinchi tajribada ko`rilgan biriktiruvchi to`qima mikroskopda ko`rib izoh bering?

## XARAKAT VA TAYANCH A'ZOLAR TIZIMI

Odam tanasini xarakatga keltiruvchi a'zolar 2 qismga bulinadi. Birinchisi faol xarakatini vujudga keltiruvchi muskullar, ikkinchisi passiv suyaklar va ularni birlashtiruvchi boyamlardir.

Tayanch va xarakatlar tizimi odam tanasi ogirligining 72,4%ini tashqil etsa shundan 1G'6 qismi suyaklar va 2G'5 qismi esa muskullardan iborat.

### SUYAKLAR XAKIDA UMUMIY MA'LUMOT

#### (OSTEOLOGIA)

Odam tanasidagi suyaklar majmuasi skeletni tashqil kiladi, skeletos – kuritilgan degan ma'noni anglatadi, uning ogirligi o`rtacha 5-6 kg, ya'ni tana ogirligining 8-10%ini tashqil kiladi. Skeletdagagi suyaklar soni 200 dan ziyod.

Suyak (os- ossis) kattik va elastik bo`lib, asosan ikki turdag'i moddalardan tashqil topgan. Suyakning 1G'3 qismini uning elastikligini ta'minlovchi organiq moddalar, kolgan 2G'3 qismini suyakka kattiklik beradigan anorganiq (klciy tuzlari fosfat tuzlari) moddalar tashqil kiladi.

Suyakdagi elastiklikni (egiluvchanlikni) ossien moddasi ta'minlasa, mineral tuzlar uz navbatida, suyakka kattiklik (pishiklik) xususiyatini beradi. Suyaklar mustaxkamligi aynan organiq va anorganiq moddalarning fiziologik nisbatiga boglik va bu nisbat yoshga karab uzgaruvchan bo`ladi. Shu bois yosh organizmdagi suyaklar organiq moddalarning (ossien va muguz) kupligi tufayli elastik (egiluvchan), kam sinadigan va mustaxkam bo`ladi, yosh ulgaygan sari (xayot davomida iste'mol kilingan mineral tuzlar xisobiga) suyak tarkibidagi tuzlar nisbati uzgarishi kuzatiladi, natijada keksa kishilarda suyakning elastiklik xususiyati yukolib murtlashadi va tez sinadigan bo`lib koladi.

Organiq va anorganiq moddalardan tashqari suyak tarikibida D vitamini va kalciy tuzlari etishmasligi raxit kasalligi kelib chikishiga olib keladi. Kasallik okibatida suyaklarda mustaxkamlik kamayadi, yosh suyakning usishi va rivojlanishi ishdan chikadi, shu bois suyaklarning xar tomonlama kiyshayish asorati kuzatiladi. Vitamin A etishmasligida suyaklar yugonlashib ichidagi bushlik va kanalchalar kengayadi. Ossien, mineral tuzlar va vitaminlar kushilishi natijasida suyak granitdan kattik, mis va pulatdek mustaxkam bo`ladi.

Olimlarning ma'lumotlariga kura vertikal xolatda suyaklar tonnalab yuk kutarishi mumkin.

### **Suyaklar tasnifi.**

Suyaklar shakliga kura kuyidagi guruxlarga bulinadi.

- 1-Naysimon. A. Uzun naysimon (elka, bilak tirsak, son suyaklari)
- B. Kalta (kul va Oyoq panja suyaklari)
- 2-Govak. A. Uzun (kovurga, tush suyagi)
- B. Kalta (umurtka, kul va Oyoq panja suyaklari)
- V. Sesamasimon (tizza kopkogi va nuxasimon suyak)
- 3-Yassi. (peshona, tepa, ensa, kurak va chanok suyaklari).

Xar qaysi naysimon suyaklarning o`rta qismi diafiz (tanasi), oxirgi ikki uchlari tanaga yakin uchlari proksimal epifiz va tanadan yirok uchi distal epifiz deb nomlanadi. Diafiz bilan epifiz oraligi metafiz deyilib, suyakning usish soxasiga tugri keladi. Suyakning oxirgi uchlardagi burtma, dumbok va shunga uxshash xosilalar apofiz deyiladi. Aynan shu xosilalarga boylamlarning birikishi suyak bugimini mustaxkamsa, muskullar birikishi bugimdagisi xarakatni yuzaga keltiradi.

Naysimon suyakning kundalang kesimi kuzdan kechirilganda, sirtki yuzasi suyak usti pardasi (periosteum) bilan koplangan, u ikki kavatdan iborat. Tashqi kavati yupka, pishik fibrioz tolalaridan tashqil topgan, uning ichki kavatidagi osteogen xujayralari suyakning eniga usishiga imkon beradi. Suyak pardasidagi teshiklar esa kon tomirlar va asab tolalari o`tadigan oziklantiruvchi teshik bo`lib xizmat kiladi.

Suyakning ichki tuzilishi 2 xil moddadan xosil bulgan.

Tashqi tomoni zinch ya`ni, kattik (substantia com pacta) moddadan tuzilgan bo`lib suyak pardasi bilan bevosita birikadi, govak modda (sustantia spangiosa) suyakning ichki tomonida joylashgan bo`lib mayda-mayda turga uxshash katakchalar xosil kilib suyak kumigiga davom etadi. Unda kizil va sarik ilik xamda kon tomirlar talaygina bo`lib, suyak nayi (kanali)ga ochiladi.

Kalla skeletidagi ba`zi suyaklar tanasida bushliklar borligi bilan boshka suyaklardan fark kiladi va xavo saklovchi (pnevmosteum) suyaklar deb ataladi. Bunday suyaklarga peshona, ponasimon (asos), galvirsimon va yukori jag suyaklari kiradi, bushliklar kuz kosasi va burun bushligi atrofida joylashgan bo`lib uziga xos funkcional xususiyat kasb etadi, ya`ni suzlashganda tovushni jarangdorligini xamda kalla skeleti engilligini ta'minlaydi. Chakaloklarda bu bushliklar shakllanmagan bo`ladi. Katta yoshdagilarda bu bushliklarda yiring yoki kon tuplangan xollarida tovush jarangdorligi buziladi va boshka asoratlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu xastalikni fakatgina jarroxlik usulida davolashga tugri keladi.

## **Suyaklarning vazifasi.**

**1-Tayanch vazifasi.** Suyaklar organ va tukimalar uchun ustun xisoblanib, tana ogirligini kutaradi, unga shakl berib turadi.

**2-Xarakat vazifasi.** Suyaklar bir-biri bilan bugim xosil kilib boylamlar yordamida mustaxkamlanadi va muskullar yordamida xarakatga keladi.

**3-Ximoya vazifasi.** Suyaklar va suyaklar majmuasi (kukrak kafasi, kalla skeleti, umurtka pogonasi) ba'zi a'zalarni tashqi tomondan urab turadi, tashqi ta'surotlardan muxofaza kiladi.

**4- Depo (zaxira) vazifasi.** Suyaklar mineral tuzlarning zaxirasi xisoblanadi: suyak taribining 70% i mineral birikmalarga tugri keladi.

**5- Kon yaratuvchanligi (gemopoez).** Bolaning embrional davridan boshlab naysimon suyaklar bushligidagi kizil ilik konning shaklli elementlari (eritrocit, leykocit, trombocitlar)ni xosil kiladi, shu bois suyak kumigi kon yaratishning asosiy (markaziy) a'zosi xisoblanadi.

## **Suyaklarning rivojlanishi.**

embrional davrda suyak tukimasi boshka tukimalarga nisbatan kechrok (6-8 xافتада) mezinxema (embrional biriktiruvchi tukima)dan xosil bulishi aniqlangan. Aksariyat suyaklar paydo bulishi birlamchi, ya'ni suyakning yosh xujayrasi osteoblastlardan paydo bo`lib, bunday suyaklanish endesman (en-ichida, desma- aloka) suyaklanish deyiladi, bunga kalla suyaklari xosil bulishi misol bo`ladi. Suyakning ikkilamch suyaklanishi esa tog`ay tukimasida rivojlanayotgan suyak xujayrasi (yosh ostiocid) paydo bulishi bilan boglik. Bunday suyaklanish perixondrial (peri-old, atrof chondro-tog`ay) suyaklanish deyiladi. Agar tog`ay tukimasini ichidan suyaklanish nuktasi paydo bulsa endoxondrial (endo-ichi, chondro- tog`ay) suyaklanish deyiladi.

## **Suyaklar arxitektonikasi.**

Tana skeleti suyaklarning joylashishiga karab kuyidagicha bulinadi:

1. Gavda suyaklari:

A. Umurtka pogonasi (33-34 ta umurtkadan iborat)

B. Kovurgalar (12 juft).

V. Tush suyagi

2- Kalla suyaklari:

A. Yuz qismidagi suyaklar: burun, kuz yoshi, yonok, yukori va pastki jag, dimog va tanglay suyaklari.

B. Bosh qismi suyaklari: peshona, ensa, chakka, tepa, ponasimon, galvirsimon suyaklar.

3- Qo`l suyaklari:

A. Elka kamari suyaklari (o`mrov va kurak)

B. Kulning erkin suyaklari (elka, tirsak, bilak va kul panjası suyaklari).

4- Oyoq suyaklari:

A. Oyoq kamari (chanok) suyaklari: yonbosh, kov va utirgich suyaklar.

B. Oyoqning erkin suyaklari: son, katta va kichik boldir suyaklari, Oyoq panjası suyaklari.

Skeletning funkcional axamiyatini xisobga olib, uning arxetektonikasini taxlil kiladigan bulsak, unda umurtka pogonasi muxim markaziy qismni egallaydi.

Bo`yin umurtkalari ensa suyagi bilan bevosita bugim xosil kilib birikadi, kukrak umurtkalarining kovurgalar bilan birikishi kukrak kafasini xosil kiladi. Uz navbatida kukrak kafasi elka kamari (o`mrov va kurak) suyaklari yordamida kulning erkin suyaklari bilan bugim xosil kilib birikadi.

Dumgaza umurtkalari chanok suyaklari bilan birlashib yaxlit chanokni xosil kiladi. Chanok suyaklarining tanasida xosil bulgan sirka kosasi son suyagining proksimal uchi bilan bugim xosil kilib birikadi. Shu bois umurtka poganasiga skeletning negizi deb karaladi.

### **Labarotoriyada jihozlar va moddalar bilan ishlaganda amal qilinadigan xavfsizlik qoidalari.**

Tajriba o`tkazishda baxtsiz hodisalar sodir bo`lishining oldini olish uchun quyidagi havfsizlik qoidalari qat’iy amal qilish lozim:

1. Labarotoriya tajribalari va amaliy ishlarni bajarayotgan paytda xonada keraksiz harakatlar qilmang. Bunga o`rtog`ingizga halaqit berishingiz mumkin. Hamma o`z joyida tartib va intizom bilan ishlashi, labarotoriya xonasiga keng va yorug` bo`lishi, talabalar bir-birlariga halaqit bermasdan joylashishi lozim.

2. Ish joyingizni toza tuting. Tajriba bajarish paytida stol ustidagi keraksiz narsalarni chetga olib qo`ying.

3. Har bir ishni bajarishdan oldin uni bajarish yuzasidan berilgan yo`l-yo`riq bilan yaxshilab tanishib chiqing. Shundan keyingina ishni bajarishga kirishing.

4. Labarotoriya xonasida ovqat iste'mol qilish yoki labarotoriya stakanidan foydalanib suv ichish qat’iy ta’kidlanadi.

5. Moddalar va ularning eritmalarini bilan ishlaganda ehtiyot bo`ling, ular teriga yoki kiyimga tomsa kuydirishi mumkin. Moddalar saqlanadigan idishlarning og`zini ochiq qoldirmang.

6. Jarohlik asboblari bilan ishlayotganda ehtiyot bo`ling.

7. Laborotoriya xonasida talabalar oq halat, boshlarida oq bosh kiyimi, qo`llariga rezina qo`lqoplar (Hayvonlarni operaciya qilayotgan paytda) kiymoqlari zarur.

8. Ish oxirida labarotoriya idishlarni, ish ustoli ustini yig`ishtirib, tozalab qo`ying.

### **Laboratoriya ishi № 1.**

**Mavzu:** Arralagan suyak preparatlari tayyorlash.

**Darsning maqsadi:** Suyaklar haqida to`liq ma'lumot berish va arralangan suyak preparatlarni tayyorlashni talabalarga o`rgatish.

Suyaklar tashqi tuzilishiga binoan suyaklar naysimon va yassi suyaklarga bo`linadi. Hamma suyaklar qattiq tig`iz moddadani va g`ovak moddadani iborat. Uzun naysimon

suyaklarning tig`iz moddasi suyakning o`rta qimsmini, g`ovak modda uning ikki uchini egallagan. G`ovak modda ichida mayda teshiklar qizil suyak iligi bilan to`lgan.

Har xil arralangan suyaklarni Laboratoriya darsida suyaklarning tuzilishini o`rganish muhim omildir.

**Kerakli asboblar:** qisqich, mayda, tishli dastarra, skal`pel` yoki pichoq, qattiq tukli cho`tka, buzoq yoki qo`yning ichki g`ovak suyaklari.

**Ishning borishi:** qo`zi yoki buzoqning va boldir suyaklari pichoq, so`ngra qattiq tukli cho`tka bilan go`sht hamda pay qoldiqlaridan, suvda yuvib doka bilan yaxshilab artiladi. Keyin bu suyaklarni qisqichga o`rnatilib, mayda tishli dastarra bilan ularning kallasi va g`ovak qismi ko`ndalangicha va uzunasiga arralanada. Suyaklar qanchalik yosh hayvonlardan olingen bo`lsa, ular shunchalik oson arralanadi.

Arralangan suyaklarni darsda ko`rsatish suyak muhim va murakkab organligi, xar bir suyakning tuzilishi, uning vazifasiga bog`liqligi haqida xulosa chiqarish imqonini beradi.

## **2-tajriba.**

**Mavzu:** Kuydirilgan va kalciysizlantirilgan suyak preparatlari tayyorlash.

**Darsning maqsadi:** suyaklarning ichki va tashqi tuzilishi haqida talabalarga to`liq ma'lumot berish hamda kuydirilgan suyak preparatini tayyorlash.

Suyaklarning sirti yupqa ammo pishiq biriktiruvchi, to`qimadan iborat suyak pardasi bilan qoplangan bu parda suyak moddasi bilan mustahkam birikib ketgan. Suyakning qattiqligi pishiqligi va elastikligini ularning tarkibi belgidaydi.

**Kerakli asboblar:** mayda suyaklar (yirik baliq qovurg`alari yoki baqa, qush, quyon kabilardan birining son suyaklari ), pincet, spirt lampa, probirka, staqon, 10 va 30 % li xlorid kislota ishlatilgan suyuqliklar tashlanadigan shisha banka, toza suvli idish.

**Ishning borishi:** suyakni kuydirish. Suyakning bir uchidan pincet bilan ushlab, ikkinchi tomoni spirt lampaga tutiladi. Bunda suyak qo`lansa hid chiqarib yona boshlaydi.

Labarotoriya darsida talabalar o`qituvchi topshirig`i bilan kuydirilgan suyakkning xossalari unga qo`l tekkizish bilan tekshshirib ko`radilar va uning oson uqalanib ketishini aniqlaydilar. Shundan keyin suyakning bir parchasini probirkaga solib, ustidan 30 % li xlorid kislota quyilganda suyak qo`l ining kislotada eriy boshlashi kuzatiladi. Bunda suyakning mineral qismidagi kalciy tuzlariga kislota ta`sir qilish natijasida  $\text{SO}_2$  pufakchalar tarzida idishdan ajralib chiqsa boshlaydi. Bu tajriba suyakda yonadigan organiq modda va yonmaydigan, ammo kislotada eriydigan mineral moddalar borligi, mineral moddalar suyakning qattiq va mo`rt qilib turishi haqida xulosa chiqarish imqonini beradi. **Suyakning kalciysizlantirish.** Probirkaning uchdan bir qismiga qadar 10% li xlorid kislota quyiladi va unga bir bo`lak suyak solinadi. Bunadan  $\text{SO}_2$  pufakchalar xolatida ajralayotganligi kuzatiladi. Oradan yarim soat o`tgach, probirkadan kislota bo`sh idishga to`qiladi, suyakni probirkadan olib, yaxshilab yuviladi va xususiyati o`rganiladi.

Labarotoriya ishi davomida talabalar kalciysizlantirilgan suyak juda yumshoq va elastik bo`lib qolganligi, uni egish, bukish va hatto tugun qilib bog`lash mumkinligini aniqlaydilar. Agar kattaroq suyak kalciysizlantirmoqchi bo`lsa, uni yuqoriyoq qoncentraciyali (15-30 % li) kislota bir necha marta yangilab turiladi. Kalciysizlantirilgan suyakni uzoq vaqt saqlash uchun uni 70 % li spirtga olib qo`yiladi.

Yuqoridagi natijalarga ko`ra darsda suyakning xossalari ular tarkibidagi organiq va mineral moddalar miqdoriga bog`liq, suyakning tarkibi odam yoshi oshib borgan sari o`zgarib, organiq moddalar kamayadi, mineral tuzlar miqdori ortadi va natijada suyak mo`rtlashib qoladi, degan xulosa chiqariladi.

**Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar:** Yuqorida ko`rsatilgan rasmlarni albomingizga chizing.

## Laboratoriya ishi № 2

**Mavzu:** Suyakning mustahkamligini aniqlash.

**Darsning maqsadi:** Suyakning ichki tuzilishi hamda uning mustahkamlash haqida to`liq ma'lumot berish. Suyak pishiq biriktiruvchi to`qimadan iborat suyak pardasi bilan qoplangan bu parda suyak moddasi bilan mustahkam birikib ketgan. Suyak ana shu suyak pardasi hujayralarining bo`linishi tufayli yo`g`onlashadi.

Suyaklarning xossalari o`rganilganda ularning mustahkamligi ta`kidlab o`tiladi.

**Kerakli asboblar:** qo`zi yoki yirikroq qushning son yoki elka suyagi, tosh-tarozi, osma tarozi pallasi.

**Ishning borishi:** aniqlash uchun olingan suyak yonma-yon turgan stollar o`rtasiga gorizontal holda qo`yiladi. Bunda suyakning bir uchi birinchi stolning chekasiga, ikkinchi uchi esa ikkinchi stolning chekasiga qo`yiladi. Shundan keyin suyakning o`rtasiga tarozi pallasi ilinadi

( -rasm). Palladagi toshlar 1 kg dan boshlab, to suyak singunga qadar ko`payib boriladi va uning qancha og`irlilikka bardosh berishi aniqlanadi.

**Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar:** Suyaklarni xossalari haqida labarotoriya daftaringizga yozing.

## Laboratoriya ishi № 3

**Mavzu:** Suyakning naysimon bo`lishi va uning ahamiyati.

**Darsning maqsadi:** Suyaklarning naysimon bo`lishi va naysimon suyaklarning ahamiyati haqida ma'lumot berish.

Suyaklar ikki xil suyaklar guruhiga bo`linadi:

1. Naysimon suyaklar.
2. Yassi suyaklar.

Naysimon suyaklar o`z navbatida ikki xil: Uzun naysimon suyaklar: son, boldir, elka bilaklarning tanasining o`rta qismida sariq suyak iligi bilan to`lgan kovagi bor. Ikki uchi esa tog`ay bilan qoplangan kalta naysimon suyaklar oyoq va qo`l panjalarida joylashgan, ushbu suyaklarning o`rtasi naysimon bo`ladi. Bunday tuzilish organizm uchun zarur bo`lgan mustahkamlikni ta'minlaydi. quyidagi tajriba suyakning naysimon bo`lishi va uning ahamiyatini ko`rsatadi.

**Kerakli asboblar:** ikki varaq qog`oz (20x30 sm), osma apteka, tarozi pallasi, nina yo`g`onligidagi sim bo`lagi (20-25 sm), diametri 1 sm li shisha nay yoki o`quvchi ruchkasi, ip yoki ipak lenta bir-biridan 20 sm oraliq tik o`rnatilgan ustunchali taxtacha, qog`oz elim.

**Ishning borishi:** Ikki varaq qog`ozning biri shisha nayga yoki ruchkaga, ikkinchisi to`g`ri simga uzun tomonlari bilan zinch qilib, ezmasdan uraladi; varaqarning eng chekka qismi elim bilan o`ralgan qismga yopishtiriladi. Elimlangan joy qurigach, shisha nay va sim o`ramlardan sug`irib olinadi. Natijada suyak tuzilishi eslatadigan qog`oz nay va ichi yaxlit qog`oz tayoqcha hosil bo`ladi. Shundan keyin qog`oz tayoqchaga bittadan lenta halqa kiritiladi. Ustunchalar ilgichiga

avval qog`oz tayoqcha o`raladi va undagi lentali halqachaga tarozi pallasi ilinadi. Tarozi pallasiga to qog`oz tayoqcha egilguncha tosh qo`yib boriladi va tayoqchaning qancha og`irlikda yuk ko`tara olishi belgilanadi.

Natijalar taqqoslanganda jiddiy farq ko`zga tashlanadi: garchi bir xil materialdan yasalgan bo`lishiga qaramay, nay yaxlit tayoqchaga nisbatan ancha og`irroq yuk ko`tara olishini ko`rsatadi.

Tajriba nayining shu materialdan yasalgan tayoqchaga nisbatan mustahkam bo`lishini, binobarin skelet ayrim suyaklarining naysimon bo`lishi organizmga mustahkamlik va engillik berishini isbotlaydi.

#### **Laboratoriya № 4**

**Mavzu:** Umurtqa pag`onasidagi suyaklarning tuzilishi, ularning uzaro birikishi ,bo`g`im va boyamlarni o`rganish ,umurtqa pag`onasini kalla suyagi bilan birikishi .

**Darsning maksadi** . Umurtqa pag`onasi suyaklari haqida aniq tushuncha hosil qilish hamda umurtqa pag`onasi boshqa suyaklar bilan uzaro birikishini urganish .

**Umurtqa pag`onasi** (columma vertebralis) barcha umurtqali organizmlarning xarakterli belgisidir.Umurtqa pag`onasi gavdaning tayanchi bo`lib, tana va qo`l larning ogirligini kutarib turadi vash u ogirlikni chanok hamda Oyoqka tushiradi.

Odamda umurtqa pag`onasi 33-34 umurtqadan tashqil topgan. So`nggi 6-9 ta umurtqa bir-biri Bilan kushilib ketadi va dumgaza Bilan dumni hosil qiladi.

Umurtqa pag`onasining besh bo`limii tafovut qilinadi 7 ta umurtqadan tashqil topgan bo`limii, 12 ta ko`krak bo`limii, 5ta umurtqadan iborat bel bo`limii, 5 ta umurtqadan tashqil topgan dumgaza va 4-5 ta umutrkadan hosil bulgan dum bo`limii.

Umurtqa aro tog`aylar, boyamlar va bo`g`imlar yordamida bir-biri Bilan birikadi:

**Kerakli asboblar** : plakat tablica mulyaj maket, planshet odam skeleti, odamning umurtqa pag`onasi suyaklari, chizg`ich qog`oz, qalam va o`chirg`ich.

**Ishning borishi:** umurtqa pag`onasining uziga xos tuzilishi hamda vazifasini urganish uchun eng avvalo odam skeletidan talabalarga umurtqa pag`onasi haqida ma'lumot berish kerak. Buning uchun umurtqa pag`onasining bo`limlari va bo`limlari birikkan joylamlar ham nimalar yordamida birikkanligi aytib utiladi.

**Umurtqa** (vertobra) oldinga karab turadigan umurtqa tanasi va unga birikkan ravogi (yoyi) dan iborat.

Tanasi bilan ravogi umurtqa teshigini cheklab turadi.

Barcha umurtqalarning umurtqa teshiklari umurtqa xonalarini hosil qiladi.Bu kanallarda orqa miya joylashgan bo`ladi.

Katta ensa teshigi yordamida umurtqa kanali kalla suyagining bo`shligi bilan tutashadi.Xar bir umurtqa ravogining umurtqa tanasiga birikish joyida ustki va pastki uyiklari bo`ladi.Umurtqalar ustma- ust bo`lib turganida, yuqorida yotgan umurtqaning

pastki uyigi pastda utgan umurtqani pastki uyigi bilan tutashadi shu tarika, umurtqa aro teshiklar hosil bo`ladiki, orqa miyadan nervlar shu teshiklar orqali chikadi.

Umurtqa pag`onasining bor bo`yida umurtqalarning tanalari va umurtqa aro ravoklar uzun, bo`ylamasiga ketgan oldingi va orqa bo`ylamlar bilan bir-biriga tutashgandir. Bo`g`im usimtalari kam xarakat qildigan umurtqa aro yassi bo`g`imlarni hosil qiladi. Boylamlar yordamida umurtqalarning ravoklari, kundalang usimtalari, kirrali usimtalari birikkandir.

Qirrali usimtalarining uchi ustidan uzun suyak ust boylami o`tadi, bo`yin bo`limida bu boylam ensa boylamiga aylanadi.

Shunday qilib, umurtqalar uzaro hamda umurtqalar boshqa suyaklar bilan, umurtqa aro tog`aylar, boylamlar va bo`g`imlar yordamida bir-biri bilan birikadi.

Sungra talabalar Laboratoriya darsi davomida kurib tushingan skeletlarni ulganlarini olib rasmi chiziladi.

#### **Ishni rasmiylashtirishga doir tafsiyalar:**

Laboratoriya darsi davomida odam umurtqa pag`onasi suyaklarini rasmini ok qog`oz tushiring. Odam skeletidan umurtqa pag`onasi bo`limlarining ulchamlarini ulchab daftaringizga tushiring.

Rasmga karab umurtqa pag`onasi nimalar yordamida birikkanini tushuntirib bering?

### **Laboratoriya № 5**

**Mavzu:** Qovurg`alar, to`sh suyaklari va ularning tana bo`limlariga uzaro birikishini urganish.

**Darsning maksadi:** Qovurg`alar va to`sh suyaklari haqida aniq tushuncha berish, hamda tana bo`limlariga uzaro birikishini tushuntirish.

Qovurg`alar (costae) 12 juft kambar uzun yassi suyaklardan iborat. Xar bir qovurg`a kattaroq bo`ladigan suyak qismi va qovurg`a tog`ayidan tashqil topgan. Qovurg`aning boshchasi, bo`yni va tanasi bo`ladi. Ustki 10 juft qovurg`aning bo`yni bilan tanasi o`rtasida qovurg`a do`mbog`chasi bor.

Qovurg`aning to`sh suyagiga birikadigan oldingi uchi tog`ayga aylangan bo`ladi.

To`sh suyagi yoki to`sh (sternum) yassi suyaklar jumlasiga kiradi. Bu suyak 3 qismdan tashqil topgan: ustki qism-dastasi, o`rta qism-tanasi va pastki qism-xanjarsimon o`simta. Tanasi tashqariga chikib turadigan utmas burchak ostida dastasi bilan tutashgan. Tanasining ustki kirgogida bo`yintiruk uyigi, uning ikki yon tomonida esa o`mrov uyiklari bor. Tanasi bilan dastasining tashqi kirgoklarida 7 tadan uyik bo`lib Qovurg`alar shularga kelib tutashadi.

**Kerakli asboblar:** plakat, tablica, mulyaj, maket, plakat odam skeleti, odamning qovurg`a va to`sh suyaklari qog`oz, chizg`ich, qalam va o`chirg`ich.

**Ishni borishi:** Laboratoriya darsi davomida talabalarga Qovurg`alar va tush suyagini tushintirish uchun eng avvalo ularni tuzilishi, vazifasi hamda xususiyatlarini kursatib berish lozim. Buning uchun tajribalar uchun ishlataladigan odamning Qovurg`a va tush suyaklarini olib talabalar dikkatini jalb qilish kerak sungra suyaklarni tuzilishini, vazifasini birin - ketin aytib beriladi.

Qovurg`alarning tashqi va ustki yuzalari tafovut qilinadi. Qovurg`alarning ichki yuzasida uning pastki bo`ylab ketgan egatcha kurinib turadi,bu Qovurg`a aro tomirlar bilan nervlar o`tadigan joydir.

Qovurg`alar shakli va katta-kichikligi bilan bir-biridan farq qiladi.2 ta ustki va 2 ta pastki Qovurg`a hammasidan kalta bo`ladi.

**Tush suyagi** yuza joylashganligi tufayli punkciya qilish (maxsus igna bilan teshish) mumkin. Bunda diagnoztiqa yoki davo maksadlarida govak suyak moddasidan ko`mik olinadi. Sungi vaktda donirlar ragbatlantirilmokda: soglon odamlar uz ixtiyori bilan tushini punkciya kildirib, kasallarga kuchirib utkazish uchun ko`miklarini bermokdalar.

Ko`krak umurtqalari, 12 juft Qovurg`a va tok tush suyagi hamda bularning birikmalari ko`krak kafasi skeletini hosil qiladi.(rasm).

Qovurg`alar uzining orqa uchlari bilan ko`krak umurtqalariga bo`g`imlar yordamida birikadi.Qovurg`alarning boshlari, umurtqalarni tolalari, dumbokchalari esa kundalang usimtalari bilan birikadi. Ulardan hosil bo`ladigan bo`g`imlar aralash bo`g`imlardir, bularda Qovurg`alar yukoriga kutariladi va pastga tushadi.Ustki 7 juft Qovurg`a uzining oldingi juftlari bilan tush suyagiga birikadi.Bular chin Qovurg`alardir . Keyingi 5 juft Qovurg`a soxta Qovurg`a deb ataladi.VIII. IX. X.Juft Qovurg`alar uzlarining tog`aylari bilan bir-biriga –pastdagilar yukoridagilarga birikadi; bular Qovurg`a ravogini hosil qiladi. XI va XII juft Qovurg`alarning oldingi uchlari yumshok to`qimalarda erkin yotadi, bu Qovurg`alar ba`zan tebranuvchi Qovurg`alar deb ataladi.Xullas Qovurg`alar va tush suyaklari bo`g`imlar yordamida uzaro hamda boshqa suyaklar bilan birikadi. Sungra talabalar dars davomida Qovurg`a va tashqil kiluvchi suyaklarini ulchamlarini olib rasmlari chiziladi.

**Ishni rasmiylashtirishga doir tavsiyalar:** Rasmga va Qovurg`a, tush suyak mакетларига караб, улarning тузилиш ва узаро бирікішіні туштіріб беринг. Odamning Qovurg`a, tush suyak qismlarini ulchamini ulchab, qog`ozga tushiring?

### Laboratoriya № 6

**Mavzu:** Qo`l va elka kamari suyaklarining tuzilishi, o`mrov ko`krak suyaklari va erkin xarakat qismi suyaklari ( elka, bilak, tirsak, bilakuzuk, kaft, barmoq suyaklari) ularning uzaro birikishini va tushishini organish.

**Darsning maqsadi:** Qo`l skeleti va unitashqil kiluvchi suyaklar elka kamari va erkin qo`l suyaklari haqida tulik ma'lumot berish va ularni uzaro birikishini tushintirib berish.

Qo`l mexnat organiga aylangan. Shu munosabat bilan qo`l suyaklari va buginlarning tuzilishi uning changallab ushslash va paypaslab kurish vazifasini aks ettiradi. Qo`l skeleti elka kamari va erkin qo`l skeletidan hosil bulgan. Elka kamari skeleti ikkita kurak va ikkita o`mrov suyagidan tashqil topgan. erkin qo`l skeleti elka suyagi; tirsak va bilak suyagliari hamda panja suyaklaridan vujudga kelgan.

**Kerakli asboblar:** mulyaj,plakat, tablica, planshet, maket, odam skeleti, odamning qo`l skeleti,qog`oz, qalam, o`chirg`ich, chizg`ich va kley.

**Ishning borishi:** Avvalo qo`l skeleti va uni tashqil kiluvchi suyaklarni talabalarga tanishtiriladi. Buning uchun odam skeletining qo`l qismi olinib tushintiriladi.

Qo`l skeleti elka kamari va erkin qo`l skeletidan hosil bulgan. Elka kamari suyaklari o`mrov suyagi va kurak suyaklariga bulinadi.

**O`mrov suyagi** (clavicula )ning S-simon bukilgan tanasi va yo`g`onlashgan ikki uchi-tush va akromial (elka) uchi bor. O`mrov suyagining shakli, xususan, ozg`in odamlarda teri ostida yaqin ko`rinib turadi; bu suyakni hamisha paypaslab ko`rish mumkin..

**Kurak suyagi** (scapula) –uchburchak shaklidagi yassi suyak Kurak suyagining uchta kirg`og`i, ya`ni chet ustki, tashqi va ichki(umurtqa) cheti va uchta burchagi ustki, pastki va yon burchagi bor.

O`mrov suyagining tush tomonidagi uchi tush suyagi bilan birikib, egarsimon shakldagi tush-o`mrov bo`g`imini hosil qiladi. Bu buginda o`mrov suyagi sa`nitar vertikal, uk atrofida hamda uz uki atrofida xarakat qilishi mumkin.

Kurak suyaklari muskul lar yordamida ko`krak kafasiga birikadi, serxarakat bo`ladi va uzzxarakatlari bilan butun qo`l xarakatlarining xajmini oshiradi.

erkin qo`l skeleti quyidagi suyaklar hosil qiladi.

**Elka suyagi** (humerus) – uzun naysimon suyak.uning ta`nasi va ikki uchi bor. Ustki uchi kurakbilan birikish uchun xizmat qiladigan dumalok bugin boshchasidan iborat. Elka suyagining bu uchi anatomik bo`yin bilan tana`sidan ajralib turadi.

Bilak suyaklari (rasm) 2 ta uzun naysimon suyaklar –va bilak suyaklaridan iborat.

